

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**XORIJIY FILOLOGIYA FAKULTETI**

**INGLIZ TILI O'QITISH METODIKASI KAFEDRASI**



**60230100-Filologiya va tillarni o'qitish ( ingliz tili)**

**4-kurs talabalari uchun**

**PEDAGOGIK AMALIYOTI**

**DASTURI**

**Termiz-2024**

Pedagogik amaliyotning dasturi o'quv rejaga muvofiq ishlab chiqildi.

**Tuzuvchilar:**


Nazarova Z.K.  
To'rayeva G.X.

TerDU ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi  
TerDU ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi

Taqrizchi:  
Tadjiyeva M.F.

TerDU ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi PhD

Pedagogik amaliyotning dasturi Ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrasining 2024 yil " 24 " iyundagi " 22 " -sonli yig'ilishida muhokama qilingan va fakultet Kengashiga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:  Ph.D. E. Davlyatova

Pedagogik amaliyotning dasturi Xorijiy filologiya fakulteti kengashining 2024 yil " 25 " iyundagi " 14 " -son yig'ilishida muhokama qilingan va universitet o'quv-uslubiy Kengashiga tavsiya qilingan.

Fakultet kengashi raisi:  dots. X. Ibragimov A.E.

Pedagogik amaliyotning dasturi universitetning o'quv-uslubiy Kengashining 2024 yil " 26 " iyundagi " 11 " -son yig'ilishida muhokama qilingan va o'quv jarayoniga foydalanishga tavsiya etilgan.

O'quv uslubiy dasturini dots. A. Ibragimov.



**KIRISH**

Dastur bakalavr talabalarini kasbiy tayyorgarligini amaliyot davri mobaynida mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, ularni bo'lajak faoliyatlariga asos bo'la oladi hamda turli o'rta o'quv muassasalarida (o'rta umumta'lim maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari)da o'qituvchilik kasbiga tayyorlaydi. Talabalar bakalavriyat mobaynida o'rgangan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, chet tili o'qitish tamoyillari, metod, usul va vositalarni amaliyot mobaynida qo'llaydilar va shu tarzda ingliz tilini o'qitish malakalarini oshiradilar.

**Pedagogik amaliyotning vazifalari:**

1. Talabalarining universitetda tegishli bakalavr yo'nalishi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini chuqurlashtirish va ularni o'quv muassasalarida o'quv - tarbiya ishlarga tatbiq etish.
2. Bakalavr ta'lim yo'nalishidagi asosiy o'quv fanlari o'qitish uslubiyoti fanlaridan olingan bilimlari asosida talabalarni o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv - tarbiya ishlarini olib borishga o'rgatish.
3. Talabalarni sinf rahbarligi vazifasini bajarishga, o'quvchilar jamoasi bilan ishlashga o'rgatish.
4. Pedagogik amaliyot o'tish davrida talabalarda o'quv muassasalari nizomi tuzilishi, ishlash tartibi, o'qituvchi kasbining o'ziga xos xususiyatlarini to'la o'zlashtirishi, o'quv fanlari bo'yicha mustaqil dars o'tish malakava ko'nikmalarini shakllantirish, mustaqil holda o'qituvchi vazifasida ishlab, to'la ma'suliyat bilan o'quvchilarning fanlar bo'yicha o'zlashtirishi va ta'lim - tarbiyaga javobgarligini his etishga o'rgatish.
5. Talabalarining pedagogik kasbiga bo'lgan intilishini rivojlantirish va mustahkamlash, hamda mustaqil va rivojlanayotgan Vatanimizning xaqiqiy vatanparvarlarini tarbiyalashda o'z pedagogik qobiliyatini safarbar qilishga o'rgatish.

**Pedagogik amaliyotning muddati**

Pedagogik amaliyot 4-kursda 7-semetrdan 4 haftalik muddatda o'quv muassasalarida o'tkaziladi. Pedagogik amaliyotning o'quv yili davomida o'tkazilish muddati o'quv jarayoni grafiki asosida aniqlanadi.

Pedagogik amaliyotda talabalar asosan o'quv muassasalarida (maktablar, akademik-litseylar, kasb-hunar kollejlari) tuzilish strukturasi, ma'muriyat va o'qituvchilar jamoasi vazifalari, o'quv muassasalarida ichki tartib- intizomlar qoidalari, o'quv - rejalarini tuzilishi, fanlar bo'yicha o'quv dasturlari va ular asosida kalendar - tematik ish rejalarini tuzishni o'rganadilar.

Amaliyot davrida talabalar o'quv muassasalarida ma'naviy- ma'rifiy ishlar rejasi va shu asosida tadbirlar o'tkazish uslubiyoti bilan tanishadilar. Talabalar bilimini nazorat qilishning reyting-test uslubini, uni o'qitishga tadbiriqini o'rganadilar. O'quv muassasalarida malakali pedagoglarning darklarini kuzatib, tahlil qiladilar.

**Pedagogik amaliyotni tashkil etish va o'tkazish**

Talabalarining pedagogik amaliyoti shahar va tumanlardagi o'rta maktablar va akademik-litseylar o'tkaziladi.

**Talabalar pedagogik amaliyotlari davomida quyidagi malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladilar:**

- bo'lajak o'qituvchilarda o'z kasbiga oid kasbiy sifatlar: malaka, ko'nikma va mahoratni shakllantirish, pedagogik bilimlarni egallash uchun ehtiyoj tug'dirish;
- o'qituvchilik kasbiga barqaror qiziqish va muhabbat ruhini tarbiyalash;
- pedagogik faoliyatga ijodiy, izlanuvchan yondashishga o'rganish;
- maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quv-tarbiya jarayonining hozirgi ahvoli bilan yaqindan tanishtirish, ilg'or pedagogik tajribani o'rganishga, tahlil qilishga imkoniyat yaratish;
- shahar va qishloq sharoitlarida o'qituvchi, tarbiyachi va sinf rahbariga xos mahoratlarini shakllantirish;
- o'quv yurti pedagogik jamoasi faoliyati bilan tanishish va o'quv-tarbiya jarayonini moddiy jihatdan ta'minlashda yordam ko'rsatish,
- bolalar shaxsini va o'quvchilar jamoasini psixologik-pedagogik jihatdan o'rganish;
- uslubiy birlashmalar, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, fan uyushmalari va ilmiy pedagogik kengashlar ishi bilan tanishish;



- o'quv-tarbiya muassasalariga milliy tarbiya vazifalarini hal etishda yordam ko'rsatish.
- madaniy-ommaviy ishlar orqali talabalarning badiiy havaskorlik to'g'risida, turli klublarda qatnashishini, madaniy yurishlar, munozaralar, fidoyi kishilar bilan uchrashuvlarni tashkil etish.

• bo'lajak o'qituvchilarning etetik didini tarbiyalash, qobiliyatlarini rivojlantirish, bilim doirasini kengaytirish, o'quvchilar bilan madaniy-ommaviy ishlarni uyushtirish ko'nikmasi bilan qurollantirish.

Amaliyot davrida talabalar asta-sekin tayyorparlikning har bir bosqichidagi o'qitishning asosiy maqsadi va mazmuni hamda talabalar faoliyati jarayonida mustaqillik darajasi va o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari bilan tanishadilar.

Amaliyot davrida talabalar asta-sekin tayyorparlikning har bir bosqichidagi o'qitishning asosiy maqsadi va mazmuni hamda talabalar faoliyati jarayonida mustaqillik darajasi va o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari bilan tanishadilar. Ayni chog'da o'quvchilar va o'qituvchilar jamoasini va laboratoriya ishlari bilan tanishadilar. Zero, har bir o'quvchi shaxsini va bolalar jamoasining xususiyatlarini bilmay turib, bolalarga ta'lim va tarbiya berish jarayonini rejalashtirish va boshqarish mumkin emas.

Amaliyotchi talabalar pedagogik amaliyot davrida quyidagilarni bajaradi:

- darslarning va manaviy tadbirlarning mustaqil pedagogik-psixologik tahlili;
- sinf jamoasining pedagogik-psixologik xususiyatlarini o'rganish;
- sinfdagi pedagogik-psixologik muxitni o'rganish;
- maktab va litsey o'qituvchilarining darslarini pedagogik-psixologik xulosalar bilan tahlil qilish;
- ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish va o'rganish;
- materiallarni yig'ish va ular asosida o'quvchilarga hamda guruh (sinf)ga pedagogik-psixologik tavsifnoma yozish;
- amaliyot bo'yicha hisobot tuzish va pedagogik amaliyot davridagi hujjatlarni rasmiylashtirish.

#### Amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda quyidagi mahoratlar mustahkamlanadi va rivojlanadi:

- o'quv mashg'ulotlarining dars ishlanmalari va mavzuviy rejalarini ishlab chiqish, amaliyot davomida sinfdan tashqari ishlarni rejalashtirish;
- darslarni mustaqil tayyorlash va o'tkazish, o'quvchilar bilan qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil etish;
- bolalar tarbiyasiga kompleks yondashgan xolda turli xil sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni olib borish;
- o'qituvchilar, bolalar va ularning ota-onalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni pedagogik maqsadga muvofiq ravishda o'rganish;
- maktab hujjatlarini yuritish (sinf qaydnomasi), bolalar kundaliklari, daftarlarni tekshirish, ko'rgazmali qurollar, didaktik materiallar tayyorlash;
- ota-onalar bilan yakkama-yakka ish olib borish, ota-onalar faollari bilan ishlash, ota-onalar yig'ilishlarida so'zga chiqish (oilaviy tarbiyaning dolzarb muammolari haqida);
- aholi bilan, turar joylardagi, mahallalardagi bolalar va o'smirlar bilan madaniy-ommaviy ishlar olib borish;
- kurs loyihasini tayyorlashda foydalanish uchun materiallar yig'ish maqsadida pedagogik tajriba yoki ijodiy tekshiruv ishlarni olib borish;
- amaliyot mobaynida o'qituvchilar va shaxsiy tajribalarni umumlashtirish, tahlil qilish va hokazo.

Amaliyotga chiqishdan oldin amaliyotchilar bilan konferentsiya o'tkazib, amaliyot davomida bajarilishi lozim bo'lgan ishlarni muhokama qilish, tayyorlanishi lozim bo'lgan hujjatlar haqida tushuncha berish tavsiya etiladi. Bunda har bir amaliyotchining amaliyot davomida bajaradigan ishlar rejasini tuzish maqsadga muvofiq.

#### Maktab, va akademik litseylarning o'quv-tarbiyaviy ishlari bilan tanishish

Talabalarning maktab, akademik litseylaridagi mavjud ish sharoitini bilishi amaliyot samaradorligining muhim sharti hisoblanadi. Amaliyotning birinchi haftasida maktab, akademik

litseyning direktori, uning o'rinbosarlari bilan suhbat tashkil qilinadi. Bu suhbatda talabalar maktab o'quv-tarbiyaviy ishlarining vazifalari, uning mazmuni va tashkil etilishi, o'quvchilarga qo'yiladigan talablar bilan tanishadilar. Talabalar ta'lim muassasasi fan o'qituvchilari va sinf rahbarlarining rejalarini o'rganadilar, o'quv xonalari va ulardagi jihozlar bilan, informatika xonalari va laboratoriya ishlari bilan tanishadilar. Ayni chog'da o'quvchilar va o'qituvchilar jamoasini va laboratoriya ishlari bilan tanishadilar. Zero, har bir o'quvchi shaxsini va bolalar jamoasining xususiyatlarini bilmay turib, bolalarga ta'lim va tarbiya berish jarayonini rejalashtirish va boshqarish mumkin emas.

Shuning uchun talabalar o'quv-tarbiyaviy amaliyot davri faoliyatining mazmuniga, eng avvalo, o'quvchilarni o'rganishga doir ishlar kiritiladi. U butun amaliyot davomida olib borilsada, har qalay maktab o'quv-tarbiyaviy ishlari bilan qisman tanishish va bolalar jamoasini hamda talaba ish olib borishi kerak bo'lgan sinfdan ayrim o'quvchilarni o'rganish uchun maktabga kelgan birinchi hafta maxsus ajratiladi.

Talabalar amaliyotning birinchi haftasida va keyingi davrida o'z sinfi jamoasini va ayrim o'quvchilarni maxsus o'rganadilar, buning uchun xilma-xil uslublardan foydalanadilar.

- sinf rahbari bilan suhbatlashish, uning ish rejasi bilan tanishish;
- sinf qaydnomasi asosida o'quvchilarning o'zlashtirishini o'rganish;
- o'quvchilarning shaxsiy hujjatlari va tibbiy kartalari bilan tanishish;
- fan o'qituvchilari bilan suhbatlashish, o'z sinfi o'quvchilarini o'qish va o'quv mashg'ulotlaridan tashqari vaqtlarda kuzatish;
- sinf faollari va ayrim o'quvchilar bilan suhbatlashish;
- o'quvchilarning ota-onalari bilan suhbatlashish;
- o'quvchilarning ijodiy ishlari bilan tanishish;
- darsni mustaqil o'tkazish;
- amaliyot davomida sinfdan tashqari tarbiyaviy ish jarayonida, o'quvchilar bilan kundalik munosabat jarayonida o'quvchilarni kuzatib borish va xokazo.

Amaliyotning ikkinchi haftasi – talabalarga yangi sharoitga ko'nikish uchun zarur vaqtdir. Bu haftada ular ta'lim muassasasining pedagoglar jamoasi bilan tanishadilar, o'quv-tarbiyaviy jarayoni tashkil etishning mavjud sharoitlarini o'rganadilar, vazifalar bilan tanishadilar, amaliyot davomida o'zlari amalga oshiradigan vazifalarini belgilab oladilar.

Sinf rahbari bilan muntazam ravishda suhbat o'tkazish, uning fikrini bilish, maslahatlariga quloq solish, sinf to'g'risida umumiy tavsifnoma olish, o'quvchilar o'rtasida jamoat ishlarining taqsimlanishi, sinf jamoasining an'analari bilan tanishish, ayrim o'quvchilar to'g'risida tavsifnoma olish, sinfdan tashkil qilingan o'quv-tarbiyaviy ish to'g'risida umumiy tasavvur hosil qilish, sinfning asosiy tarbiyaviy vazifalari va sinf rahbari ishining asosiy yo'nalishlarini bilib olish imkonini beradi.

Fan o'qituvchilari bilan hamkorlik, suhbatlashish, ularning darslariga kirish, dars tahlillarida ishtirok etish, turli uslubiy yangiliklar, g'oyalar xususida fikr almashish, o'qituvchilarning darsdagi asosiy talablari, foydalanilgan ped texnologiyalari, metodlari bilan tanishish, sinfdagi qaysi o'quvchi o'quv materiallarini o'zlashtirishda qiynalayotganligini hamda kim individual yordamga muhtoj ekanligini bilish imkonini beradi.

O'quvchilar va ularning ota-onalari bilan suhbatlashish jarayonida amaliyotchilar ayrim o'quvchilarga, ularning hayot sharoitiga, kundalik tartibiga va boshqalariga oid o'z bilimlarini kengaytiradilar.

Ana shunday o'rganish asosida amaliyotchilar o'quvchi shaxsiga psixologik-pedagogik tavsifnoma tuzib chiqadilar. Tavsifnoma to'plangan aniq materiallar, shaxs va jamoani psixologik-pedagogik nuqtai nazardan tavsiflaydigan dafillarni tahlil qilish negiziga asoslanadi. Unda u yoki bu sifat va xususiyatlarni shakllantirishning ijobiy yoki salbiy yo'nalishini vujudga keltiruvchi sabablar ochilib boriladi, o'quvchi xulqidagi salbiy odatlarni bartaraf etish yo'llari yoki sinf jamoasi bilan ishlashni takomillashtirish yo'nalishlari belgilanadi.



### Fan o'qituvchisining vazifalari

O'ziga birkitrilgan amaliyotchi - talabalarni ish rejasi bilan tanishtiradi, ular uchun mutaxassislik fani bo'yicha ochiq dars, darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'tkazib ko'rsatadi.

Metodist bilan birgalikda mutaxassislik fani bo'yicha dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar mavzularini taqsimlaydi. Dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarga tayyorlanishda amaliyotchi talabalarga konsultatsiyalar beradi.

Amaliyotchi talabalarning mutaxassislik fani bo'yicha dars, darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarni kuzatadi, ularning muhokamasi va baholanishida qatnashadi.

Amaliyotchi talabalarni mutaxassislik fani bo'yicha darsdan va sinfdan tashqari ishlar bajarishiga, ko'rganmali qurollar tayyorlashga va boshqa ta'lim tarbiya xarakteridagi ishlarga jalb qiladi.

Pedagogik amaliyotga bag'ishlab maktab direktori qoshida o'tkaziladigan kirish va yakunlovchi kengashlarda, universitetdagi konferentsiyalarda qatnashadi.

### Sinf rahbarining vazifalari

Amaliyotchi talabalarni sinf o'quvchilari, ularning o'zlashtirishi va axloqlari bilan, anisoy tarbiyaviy vazifalari va o'zining shu chorakka tuzilgan ish rejasi bilan ochiq tarbiyaviy soat mashg'ulotini o'tkazib beradi.

O'quvchilarning individual xususiyatlarini o'rganishda amaliyotchi talabalarga yordam ko'rsatadi.

Pedagogik amaliyot davomida amalga oshirilishi lozim bo'lgan tarbiyaviy tadbirlarni belgilab olishda talabalarga yordam beradi, tarbiyaviy ish rejasini tuzishda ularga konsultatsiya beradi.

Amaliyotchi talabalarni sinfda kundalik tarbiyaviy ishlarga jalb qiladi.

Amaliyotchi talaba amalga oshirayotgan tarbiyaviy ishlarni kuzatadi va ularning muhokamasi hamda baholanishida qatnashadi.

Pedagogik amaliyotga bag'ishlab maktab direktori qoshida o'tkaziladigan kirish va yakunlovchi kengashlarda qatnashishini kuzatib borishi va mashg'ulot o'tkazuvchining faoliyatiga aralashmasligi va yomdagilar bilan gaplashmasligi kerak.

### Amaliyot rahbarining vazifalari

Pedagogik amaliyot rahbari universitet amaliyot bo'limi yoki o'quv metodik boshqarmasining amaliyot bo'yicha mas'ul kishisidir:

- Universitet bo'yicha amaliyotni tashkil etishni va amaliyot natijalarini hisoblashni ta'minlaydi;
- Universitet miqyosida amaliyot o'tkazish reja grafigini ishlab chiqadi.
- Xalq ta'limi boshqarmasi (bo'limi) bilan kelishilgan holda pedagogik amaliyotni o'tkazish bazasi sifatida maktab yoki boshqa o'quv tarbiya muassasalarini tayinlaydi;
- Pedagogika amaliyotida qatnashuvchi maktab, universitet xodimlarining instruktiv va yakuniy yig'ilishlarini tashkil etadi va o'tkazadi;
- Fakultetlarda o'tkaziladigan instruktiv va yakuniy konferentsiyalarda qatnashadi.
- Guruh rahbarlari, metodistlar ishlarini hamda amaliyot rahbarligi bo'yicha maktab ma'muriyati va o'quvchilari ishlarini nazorat qilib turadi;
- Talabalar tomonidan o'tilayotgan darslarga va boshqa xil mashg'ulotlarga kiradi (qatnashadi), amaliyotni tashkil qilish bo'yicha ro'y bergan kamchiliklarni yo'qotish choralarini ko'radi;
- Amaliyotga rahbarlik qilgan o'qituvchi va maktab rahbarlariga beriladigan ish haqi bilan bog'liq hujjatlarni tayyorlaydi;
- Pedagogik amaliyot bo'yicha umumiy hisobot yozadi va uni o'quv ishlar bo'yicha prorektoraga topshiradi;
- Amaliyotning o'quv metodik tajribalarini umumlashtiradi, uni bajarish bo'yicha o'z takliflarini umumlashtiradi;
- Talabalarning pedagogik amaliyotga oid masalalar ko'rilayotgan kafedra yig'ilishlarida ishtirok etadi.

### Talabalarining pedagogik faoliyatlarini

#### nazorat qilish va baholash

Pedagogik amaliyotning oxirgi haftasida talabani o'zida shakllangan ijobiy tomonlarni aniqlaydi va o'tkazgan pedagogik amaliyotiga o'zi baha beradi.

Baholashda nima nazorat qilinadi va qanday baholanadi?

Nazorat ob'ektlari quyidagilardan iborat:

1. O'z-o'zini rivojlantirish individual dasturining ishlanmasi;
2. Topshiriqlarning bajarilishi;
3. Hisobot hujjatlarini tuzish;

O'z-o'zini rivojlantirish individual dasturi amaliyotning birinchi haftasi oxirida tuzilishi lozim.

Har bir talabani tayyorgarlik darajasini aniqlash, individual maqsadlarni qo'yish, topshiriqlarni tanlash, umuman, pedagogik faoliyat mazmunini tuzish kafedra o'qituvchilari rahbarligida amalga oshiriladi. Ularning individual dasturini yaslit yondashuv nuqtai nazaridan baholaydi, ya'ni pedagogik faoliyatning barcha jihatlarini hisobga olinganligi, pedagogik malakaning shakllanishi, psixik va shaxsiy xususiyatlarining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi topshiriqlar mavjudligini aniqlaydi.

Amaliyot davrida talabalarga maslahatlar berish faqat darslar, darsdan tashqari tadbirlarni ishlab chiqishga yordam ko'rsatishda emas, balki talabalarining o'z qobiliyatlarini yaxshi amalga oshirishga ko'maklashishga qaratilganidir.

Talabalar bajargan topshiriqlar tahlili (xuddi konsultatsiya kabi) ularning malakasi, shaxsiy va psixik xususiyatlarini baholashga qaratiladi, ya'ni talaba tashkilotchilik malakasini qanchalik muvaffaqiyatli amalga oshirganligi, pedagogik taktikani ko'rsata olganligi, hamdardlik bildirish, kayfiyatni ko'tarish, o'zidagi asabiylashishni yengish va hokazo kabi xususiyatlarni namoyish eta olganligi baholanadi. Har bir topshiriqning bajarilishi tanlangan darajaviy me'zonlar yordamida baholanadi, u yoki bu guruhning malakalari qay darajada namoyish etilishi aniqlanadi.

#### Amaliyotchi talabalarining amaliyot davomida to'plashi lozim bo'lgan hujjatlari:

Pedagogik amaliyot davomida har bir talaba amaliyotda tegishli hujjatlar yuritishi kerak. Amaliyot oxiridagi talabalar quyidagi hujjatlarini tayyorlashlari lozim bo'ladi:

1. Pedagogik amaliyot davomida bajargan ishlari to'g'risida yozma hisobot
2. Fan bo'yicha ochiq darsning rejasi, ishlanmasi va shu dars uchun tayyorlangan ko'rganmali materiallar
3. Darslarni kuzatish va tahlil etish daftari
4. Tarbiyaviy tadbirlarning ish rejasi
5. Darsdan yoki sinfdan tashqari o'tkazilgan bitta tadbir bayonnomasi
6. O'quvchi shaxsiga pedagogik-psixologik tavsifnoma (bir ijobiy va bir salbiy)
7. Maktab tomonidan amaliyotchi talabani pedagogik faoliyatiga tavsifnoma.

Nr	Bajariladigan ishlar	Bajarish vaqti	Bajaruvchishaxs
1	Norijiy filologiya fakulteti ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrasida 4-kurs talabalari bilan amaliyot to'g'risida konferentsiya o'tkazish xamda ularni amaliyot xujjatlari bilan tanishtirish	sentabr	Fakultet dekani, Kafedra mudiri, amaliyot rahbarlari
2	4-kurs gurux talabalarini maktab rahbarlari bilan tanishtirish	sentabr	amaliyot rahbarlari
3	Talabalarining kuzatuv darslariga kirishni ta'minlash va sinf xamda metodist o'qituvchilar bilan ishlashni ta'minlash	sentabr	amaliyot rahbarlari
4	Ochiq dars hamda tadbirlar o'tkazishni ta'minlash	oktabr	amaliyot rahbarlari
5	Bitiruvchi talabalar bilan hisobotlarni qabul qilish	oktabr	amaliyot rahbarlari

#### UMUMIY TASHKILY ISHLAR

Nr	Bajariladigan ishlar va o'tkaziladigan tadbirlar mavzusi	Bajarish vaqti	Bajaruvchishaxs
1	Pedagogik amaliyotning boshlanishiga bag'ishlangan konferentsiya	Amaliyot boshlanishida	amaliyot rahbarlari
2	Bitiruvchi talabani har bir birkitrilgan sinf va metodist o'qituvchi bilan ishlashni ta'minlash	Amaliyot davomida	amaliyot rahbarlari



3	Bitiruvchi talabalarning kundalik kuzatish daftari tekshirib borish	Amaliyot davomida	amaliyot rahbarlari
4	Talabalarning psixologik tayergarligini aniqlash	Amaliyot davomida	amaliyot rahbarlari
5	Bitiruvchi talabalarning o'zaro darslarga, metodist o'qituvchilarining darslariga kirishini ta'minlash	Amaliyot davomida	amaliyot rahbarlari
6	Darslarga kirish mobaynida amaliyotchi talabalarning dars konspektlarini tekshirish	Amaliyot davomida	amaliyot rahbarlari
7	Ota onalar bilan suhbat daftari, To'g'arak ishlarini kuzatish	Amaliyot davomida	amaliyot rahbarlari
8	Bitiruvchi talabalardan o'tkazadigan tadbirlar ro'yxatini olish va amaliyot mobaynida o'tkazib berishini ta'minlash	Amaliyot davomida	amaliyot rahbarlari
9	Amaliyot hujjatlarini tekshirish	Amaliyot oxirida	amaliyot rahbarlari
10	Amaliyot xisobotlarini qabul qilish	Amaliyot oxirida	amaliyot rahbarlari

### Pedagogik amaliyot bo'yicha baholash mezonlari

#### Yakuniy nazorat

Yakuniy nazorat og'zaki va yozma xisobot shaklida olib boriladi.

"Talabalar o'zlashtirishini baholash va HEMIS tizimlarini qiyosiy taqqoslash

Joriy baholash tizimi	Yevropa kredit transfer tizimi (ECTS –European Credit Transfer System)	O'zbekiston tizimi (%)
"5"	"A"	90-100
"4"	"B"	70-89,9
	"C"	
"3"	"D"	60-69,9
	"E"	
"2"	"FX"	0-59,9

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va Farovon demokratik O'zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – 416 bet.
3. Jalolov J.J., Makhkamova G.T., Ashurov Sh.S. English Language Teaching Methodology-T.: 2015.
4. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi.- T.: 2012.
5. Axmedova L.T., Normuratova V.I. Teaching English Practicum / Практикум по методике преподавания английского языка - T.: 2011.
6. Мильруд Р.П. Методика преподавания английского языка. English language methodology: Учебное пособие для вузов. 2-изд. - Москва. Дрофа, 2007.
7. Richards G. C. and Rodgers Th. S. Approaches and Methods in Language teaching. USA, 2003.
8. Harmer Jeremy. The Practice of English language Teaching. Cambridge, 2007.
9. Makhkamova G.T. Innovative Pedagogical Technologies in the English language Teaching. Tashkent, 2017.

#### Internet manbalari:

<https://lex.uz/docs/4613683>  
<https://lex.uz/docs/5705038>  
<https://lex.uz/docs/3153714>  
[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)  
[www.teach.eng](http://www.teach.eng)  
[www.ed.uz](http://www.ed.uz)  
[www.one.stop.eng](http://www.one.stop.eng)